

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BOSHQARUV
XUSUSIYATLARI VA UNING AHAMIYATI**

*Muhammadiyeva Feruza Turakulovna
Termiz davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy mahorat, ko'nikmalar asosida turli xil muammo va masalalarning ijobiy yechimlarini topishda boshqaruv faoliyatining mazmuni, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligimuomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tadbirkorligi, boshqarilayotgan ta'lif tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatidagi ishtiroki, xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lif tizimlarini o'rGANISH, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: menejment, shart-sharoitlar, pedagogik ta'lif, shakl, mazmun, nafosat, estetika, ijodkorlik, boshqaruv, psixologiya, muomala madaniyati.

KIRISH

Bugungi tez rivojlanib borayotgan davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intelektual salohiyatlari, o'z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Chunonchi, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e'tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta'lif tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi

Menejment tushunchasi va boshqaruv xususiyatlari. «Management» ingliz tilidagi so'z bo'lib, rus tiliga - boshqaruv, tashkil etish, rahbarlik qilish deb tarjima qilinadi. Demak, menejment boshqarish, ya'ni u yoki bu faoliyatni iqtisod, moliya va boshqarish tashkilot yoki rahbariyat tomonidan boshqarish ma'nosini anglatadi. «Menejment», «Menejer» so'zleri hozirgi paytda nafaqat ish, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning iqtisodiy o'sishining zamonaviy tendensiyalarini aks ettiradi. Ilmiy adabiyotda menejment tushunchasiga bir necha ta'riflar mavjud bo'lib, ularga:

- tashkilotda ishlayotgan odamlar vositaligida tashkilot maqsadlariga erishish;
- faoliyatning maxsus turi bo'lib, tashkil etilmagan to'dani samarali, maqsadli ishlab chiqaruvchi guruhga (tashkilotga) aylantiradi;
- mehnat va material resurslar vositachiligi orqali tashkilot maqsadlariga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish, rahbariyat va nazorat jarayonlaridir.

Bu ta'riflar 3 ta umumiy xususiyatga ega:

1. Boshqaruvda ma'lum bir maqsad mavjudligini ko'rsatadi;
2. Bu faoliyat turi maxsus intellektual xarakteri bilan farqlanadi;
3. Tashkilotda boshqaruv o'rni mavjudligi to'g'risida dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik menejment. Odatda ishlab chiqarishni boshqarish ishchilarni boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida mehnat vositalarini boshqaradilar. Shunday ekan, boshqaruv tushunchasi boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt munosabatlarini bildiradi. Ma'lumki, "boshqaruv" atamasi nisbatan kengrok ma'noni anglatadi. Mazkur tushuncha orqali ma'lum bir shaxs tomonidan biron-bir ob'ektning boshqarilishini, ya'ni nafaqat insonlarni, balki mashina, dastgoh yoki texnologik qurilmalarni boshqarishni shuningdek, mazkur boshqaruvchilarni ham boshqarishni tushunish mumkin.

Yaponiya davlatida boshqaruvni avvalo, mas'uliyat bilan berilib ishslash, agar kerak bo'lsa, o'zini qurban qilishga ham tayyor turishda, deb tushunadilar. Yaponiya boshqaruv sohasida ulkan yangiliklar yaratgan mamlakatlardan bo'lib, hozir ham dunyoda yetakchi o'rirlarni egallaydi. Darhaqiqat har qanday faoliyat boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan iborat bo'lib, mazkur tizimlar o'rtasidagi aloqa insonlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Shunday ekan har qanday soxada ham, ixtiyoriy faoliyat boshqaruvni talab etadi. Shaxsning individual faoliyatida inson o'zini-o'zi boshqaradi va ko'zlangan natijalarga erishadi. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri zarur bo'lib, bu o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvni, ya'nikim ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Boshqaruv insonlarning barcha faoliyatlariga tegishli bulgan jarayon bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni qondirsa, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat kilish, tahlil qilish va baxolash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Shunday ekan, boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga yoki tashkilot oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va moxhyatiga ko'ra bajaruvchilar (mutaxassislar)ni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari (xodimlar) faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Mazkur faoliyat boshqaruv faoliyatini, uni amalga oshirish boshkaruv funksiyalarini, amalga oshirish izchilligi (ketma-ketligi) boshqaruv algoritmini, amalga oshirish boshqaruv metodlarini, xodimlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqaruv uslublarini, mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar boshqaruv qarorlarini ifodalaydi. Bu o'z navbatida birgalikda boshqaruvning asosiy tushunchalarini tashkil etadi.

Boshqaruv faoliyati - maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektning, ya'ni rahbar bilan ta'lif tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Ushbu holatda rahbarning boshqaruv ob'ekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lif tizimi hisoblanadi. Turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lif muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi. Rahbar faoliyati ob'ektning mohiyati - ta'lif muassasasi nafakat samarali mehnatni tashkil etuvchi o'zaro aloqalar faoliyatining mazmuni nazarda tutishi, balki aniq ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlarni hisobga olgan holda ularni oldindan ko'ra bilishidadir. Kasbiy mahorat, ko'nikmalar asosida turli xil muammo va masalalarning ijobiy yechimlarini topish boshqaruv faoliyatining mazmunini belgilaydi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining shaxsiy rivojlanishi, ular ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining faoliyatga yo'nalganligi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faollikkleri, dunyoqarashlarining turg'unlashuvi va bilishga bo'lgan ehtiyojlarini shakllanishi kabi holatlar bilan tushuntiriladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini rivojlanishida mashg'ulotlarda innovatsion yondoshuv asosida muvaffaqiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishning asosiy mezonidir. Bolalar asosan mazkur jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va kelajakda o'z faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo'llash yo'llarini bolalarni rivojlanishiga mashg'ulotlarda innovatsion yondoshuv asosida bolalarni maktab ta'limga tayyorlash texnologiyasi orqali o'zida mujassam ettiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida tarbiyachilar tomonidan mashg'ulotlarda innovatsion yondoshuv asosida maktab ta'limga tayyorlash texnorlogiyasi ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqishdan iboratdir.

Ma'lumki, barcha davlatlarda pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, shu jumladan xonalarning hatto kichik elementar detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish maktabgacha ta'lif tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. Fikrimiz mazmunidan kelib chiqib ba'zi bog'chalarning faoliyatiga nazar tashlaymiz. Xususan Koreya bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash mashg'ulotlari integratsion shaklda tashkil etiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga asosan katta e'tibor berilishi, ta'limgartarbiya jarayonini uzviylikda olib borilishi, O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tizimida Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lism tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va Respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lism tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish. /qo'llanma/. - M.: Ventana-Graf, 2007.-- 80 b. - (Kutubxona bolalar bog'chasi).
- 2.Troyan A.N. Maktabgacha ta'limni boshqarish: darslik. - M.: Sfera TC, 2005.-- 160 b. (Qo'llanma)
3. Muhammadiyeva, F. T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities. *European research*, 1, 75.
- 4.TURAKULOVNA, M. F., & QIZI, M. M. M. (2021). COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE ORGANIZATION OF VISUAL ACTIVITIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 100-103.
- 5.Muhammadiyeva, F. (2023). THE ROLE OF PEDAGOGICAL WORKERS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(4), 94-96.
- 6.Muhammadiyeva, F. (2022). THE ROLE OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 2(10), 225-227.
- 7.Muhammadiyeva, F., & Muyassar, E. (2023). MAK TABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASINI KUCHAYTIRISH USULLARI. *Journal of new century innovations*, 28(5), 54-59.
- 8.Feruza, M. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN SOCIAL EDUCATION. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(07), 112-120.
- 9.Muhammadiyeva, F. (2023). MAK TABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI. *Interpretation and researches*, 2(1).
- 10.Turakulovna, M. F. (2023). MAK TABGACHA TA'LIMDA TEXNOLOGIYA TA'LIMI: BOLALARGA ARTEFAKLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA'MINLASH: Muxammadiyeva Feruza
- 11.Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lism nazariyasi kafedrasi o 'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 180-182.
- 12.Muhammadiyeva, F., & Otaxo'jayeva, B. (2023). MAK TABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING YOSHGA DOIR PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и*

практика, 2(10), 52-54.

- 13.Turakulovna, M. F. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN TECHNOLOGICAL METHODS IN PRESCHOOL EDUCATION. *PEDAGOGS jurnali*, 12(3), 94-98.
- 14.Yuldashevich, I. O. (2023). URMA ZARB CHOLG'ULARNING KELIB CHIQISH TARIXI VA QO'LLANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(8), 46-50.
- 15.Yolandevych, I. O., & TerDP, K. K. M. (2023). PERFORMANCE OF DAP INSTRUMENT OF SURKHANDARYA REGION AND ITS PECULIARITIES.
- 16.Irnazarov, O. Y. (2022). HISTORY AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF BAXSHI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 314-319.
17. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY AND IMAGINATION IN CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 22(1), 108-112.
18. Inomjonovna, R. I. (2023). STEAM EDUCATION IS ONE OF THE MAIN TRENDS IN THE WORLD. *Journal of new century innovations*, 21(2), 27-32.
19. Inomjonovna, R. I., & Xolmirzayevna, X. N. (2023). TYPES, METHODS AND METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY KNOWLEDGE AND APPLICATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(3), 92-97.
- 20 .Inomjonovna, R. I. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PICTURE ACTIVITY IN EDUCATIONAL PERSONALITY. *Journal of new century innovations*, 22(1), 113-118.
21. Inomjonovna, R. I. (2023). HUMAN CAPABILITIES-SOCIAL DEVELOPMENT IS A PRODUCT. *Journal of new century innovations*, 22(1), 119-124.
- 22.Рахматова, И. И., & Таджиева, М. Ю. (2023). ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ СОЗДАВАТЬ ТВОРЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ИЗ РАЗНЫХ РАСТЕНИЙ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 1-7.
- 23.Рахматова, И. И., & Чутбоева, М. А. (2023). ПОКАЗАТЕЛИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОГО РОСТА И РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА ДЕТЕЙ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 8-15.
- 24.Yuldashevich, I. O. THE PERFORMANCE GROUP OF MUSICAL INSTRUMENTS, THE EMERGENCE OF THE "DOIRA" MUSIC FROM MUSICAL INSTRUMENTS.